

MILLIY MADANIYATIMIZ VA QADRIYATLARIMIZNI RIVOJLANTIRISH, XALQIMIZ MA'NAVIY OLAMINI YUKSALTIRISH- IJTIMOIY TARAQQIYOTNI HARAKATLANTIRUVCHI KUCH

A.T. Ergashev,

Chirchiq OTKMBYU Gumanitar fanlar kafedrası dotsenti,
t.f.f.d.(PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy ildizlarini, ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida milliy o'zlikni yuksaltirish, milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot omillari, ma'naviy meros targ'ibotining metodologik asoslarini bugungi o'zbek ma'naviyatchi olimlari tomonidan o'rganilayotgani va amalga oshirilayotgan islohatlar to'g'risida bayon qilgan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar, ma'naviy meros, milliy, tuyg'u, ma'rifat, ilmiy, tadqiqot, zamon, tarix, falsafa, meros, jamiyat, taraqqiyot, yoshlar, o'zlik, yuksalish, omil, metodologiya, olim, dolzarb.

РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ И ЦЕННОСТЕЙ, ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНОГО МИРА НАРОДА - ДВИЖУЩАЯ СИЛА ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

А.Т. Эргашев,

доцент кафедры гуманитарных наук Чирчикского ВТКИУ,
д.ф.и.н.(PhD),.

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор описал историко-философские корни национальных ценностей, значение духовного наследия в развитии общества, развитие национальной идентичности на основе воспитания молодежи в духе национальных ценностей, факторы развития на основе национальных ценностей, методологические основы пропаганды духовного наследия, которые изучаются сегодня узбекскими духовными учеными и реализуемые реформы.

Ключевые слова: ценности, духовное наследие, национальное, чувство, просвещение, научное, исследование, время, история, философия, наследие, общество, развитие, молодежь, идентичность, подъем, фактор, методология, ученый, течение.

DEVELOPMENT OF OUR NATIONAL CULTURE AND VALUES, RAISING THE SPIRITUAL WORLD OF OUR PEOPLE - THE DRIVING FORCE OF SOCIAL DEVELOPMENT

A.T. Ergashev,

Docent of the Department of Humanities Chirchik HTCMEs,

Doctor of philosophy of historical sciences (PhD),

ABSTRACT

In this article, the author described the historical and philosophical roots of national values, the importance of spiritual heritage in the development of society, the development of national identity based on the education of young people in the spirit of national values, the development factors based on national values, the methodological foundations of the promotion of spiritual heritage, which are being studied by today's Uzbek spiritual scientists and the reforms being implemented.

Keywords: *values, spiritual heritage, national, feeling, enlightenment, scientific, research, time, history, philosophy, heritage, society, development, youth, identity, rise, factor, methodology, scientist, current.*

KIRISH

Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni yoshlarga singdirish, milliy o'zlik tuyg'usini paydo qilish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish uchun ma'naviyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etilishi zamon talabiga aylandi. Milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy ildizlari, ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida milliy o'zlikni yuksaltirish, milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot omillari, ma'naviy meros targ'ibotining metodologik asoslari bugungi ma'naviyatchi olimlarni oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'naviyatchilarning oldida turgan yana bir asosiy vazifalaridan biri, bu ma'naviyat masalasida yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimlari, milliy qadriyatlarni turli jabhalarda targ'ib etish, tajriba almashinuvlar, nazariy xulosalar bilan amaliyotni uyg'unlashtirish shuningdek mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxshilashga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilganidir. Sun'iy intellekt, raqamlashtirish kabi jihatlar bugungi globallashtirish davrining ijobiy tomonlari bo'lsa, axloqiy-ma'naviy tanazzul, "ommaviy madaniyat" uning salbiy tomonlarini aks ettiradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini

mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash «Ilhom» jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi yaratilgan bo'lib, madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy baza, institutsional tizim va madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish, madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib etishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish va boshqa shu kabi masalalar yo'lga qo'yildi.

Madaniy sohada o'zaro samarali xalqaro munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, bu borada teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilishga alohida e'tibor qaratildi. Madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazorati yo'lga qo'yildi.

Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish, bolalarni to'garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o'rganish va «nutq madaniyati» bo'yicha kurslarni tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo'nalishlari, havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda ularni asl holicha

kelajak avlodga yetkazish kabi va shunga o'xshash masalalar madaniyat markazlarining asosiy vazifalari etib belgilandi.

Ma'naviy yangilanish milliy tarixiy qadriyatlarni zamonaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Tarixiy ma'naviy qadriyatlar hozirgi zamonamiz ruhiga mos bo'lgan umuminsoniy demokratik qadriyatlar bilan bog'lanishi, ularga mos tushishi va uyg'unlashishi, birinchidan, davr talablariga javob beradi, ikkinchidan, milliy qadriyatlardan yiroqlashib ketmaslikni ta'minlaydi. Milliy qadriyatlar davr talablari asosida va millat manfaatlarni himoya qilgan holda ijodiy rivojlanadi. Har qanday tarixiy va zamonaviy qadriyatlarga jamiyatning ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bunday ijodiy yondashuv davomida yuqori taraqqiyot darajasiga erishgan rivojlangan davlatlar va millatlarning qadriyatlarini o'rganish, ular tizimidan davlatimizning demokratik taraqqiyotiga xizmat qiladigan, milliy manfaatlarimizga mos tushadigan unsurlarini tanlab olish va ularni jamiyatda qo'llay bilish kabi muammolarni hal etish mumkin.

Ma'naviy yangilanish millat va xalqlar evolyutsion taraqqiyotining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Bu jarayon milliy va ilg'or umuminsoniy ma'naviyatni uyg'unlashtirishni, globallashtirish olib kelayotgan imkoniyatlardan foydalanishni taqozo etadi. Biz qanchalik umuminsoniy qadriyatlarning buyukligi haqida so'zlamaylik, ularning ildizlari millatning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va hayotiy amaliyoti bilan bog'liq. Ma'naviy yangilanish masalalari bilan bog'liq muammolarni hal etish jarayonida quyidagi holatga e'tibor berish zarur.

Asrlar mobaynida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Bunday jamiyat mafkurasi «Dunyoviylik-dahriylik emas» degan tushuncha asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini aslo inkor etmaydi.

Ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda ushbu yo'nalishda aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkentda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Jaholatga qarshi-ma'rifat" g'oyasi ilmning hamma uchun ochiqqligini ta'minlash, din masalasidagi jaholatga barham berishni ko'zda tutadi. O'ylaymizki, bunday yondashuv uchinchi Renessans poydevoriga qo'yilgan dastlabki asosdir.

Yurtimizda so'nggi 5 yil davomida barcha sohalar qatori madaniyat rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston milliy madaniyatini yanada

rivojlantirish, O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasi va bilimni oshirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash hamda ommalashtirish, jahon madaniyati maydoniga faol integratsiyani olib kirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, madaniyat sohasi vakillarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Sh. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, shubhasiz, madaniyat sohasidagi yangi yutuqlar, o‘zgarishlarga va islohotlarning amalga oshishiga turtki bo‘ldi.

Madaniyat sohasida huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirish maqsadida “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi — madaniy faoliyat, shuningdek, madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, vatanimizning qadimiy va boy tarixini chuqur o‘rganish, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida tarbiyalash, jamiyatda vatanparvarlik va o‘z xalqi bilan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish asosida milliy o‘zlikni anglash xissini mustahkamlash va vatandoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirish, O‘zbekistonning ko‘hna va boy tarixi, xalqimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan g‘oyat katta ilmiy, madaniy va ma’naviy ishlarda amalga oshirilgan ulkan ishlar haqida mamlakatimiz aholisi, shuningdek, chet el jamoatchiligi keng ko‘lamda xabardor bo‘ldi, jahon sivilizatsiyasi reytingida O‘zbekiston yuqori o‘rinlarni ko‘rsatdi, Milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni rivojlantirish, xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirish-ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida tan olindi bu yo‘lda amalga oshirilgan islohotlar o‘z isbotini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.-488-490 b.b.

2. Nazarov Q. “Qadriyatlar falsafasi” (o‘quv qo‘llanma).- T.:Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2004. 190-194 b.b.
3. Otamuratov S. “O‘zbekistonning ma’naviy-ruhiy tiklanishi”. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.-220 b.
4. Mavrulov A. “Axloqsizlik – “yangi axloq”mi.-Toshkent. Yangi asr avlodi, 2010.-18-24 b.b.
5. Jo‘rayev N. “O‘zgarayotgan dunyoda milliy qadriyatlar va o‘zlikni asrash muammolari”.- Toshkent. O‘zbekiston nashri, 2010.-38-44 b.b.
6. Saifnazarov I. “Talaba yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda innovatsion o‘quv loyihalarning o‘rni”.-Toshkent. 2015.